

O'qitiladigan fanlar

№	Fan nomlari	
1	Davlat kadastrlari asoslari	Davlat kadastrlarining shakllanishi hamda ularni davlatning rivojlanishida islohotlardagi o'zni bo'yicha kadastr asosini o'rgatadi.
2	Yer kadastr	Yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, miqdor, sifat va me'yoriy baholash ishlarini o'rgatadi.
3	Davlat shaharsozlik kadastr	Aholi turmush madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratish kabi masalalar qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni va unga mos ravishda hududni tashkil qilish usullarini asoslash, yerlarning optimal o'lchamlari va tarkibini belgilash, ular rivojlanishining ustivor yo'nalishlarini tanlash, samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashni o'rgatadi.
4	Davlat kadastrlari ma'lumotlar bazasi	Davlat kadastrlari yagona tizimi tarkibiga kiruvchi 20 ta kadastrning tegishli vazirlik va tashkilotlar tomonidan taqdim qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirish hamda raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish ishlarini o'rgatadi.
5	Raqamli yer kadastr	Yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, miqdor, sifat va me'yoriy baholash ishlarini tashkil etish hamda ularni bajarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash yo'llarini o'rgatadi.
6	Davlat kadastrlarini huquqiy ta'minoti	Davlat kadastrlari yagona tizimi tarkibiga kiruvchi 20 ta kadastrlarning huquqiy asosini o'rgatadi.
7	Hududlar kadastr	Hududlar kadastrini tashkil etish, yagona uslubiyat asosida yuritish, kadastr ma'lumotlarini yagona tizimga keltirish, davlat kadastrlari xizmat tizimi va vazifalarini bajara olish, kadastr yo'nalishlarini yuritishda o'zaro bog'liqlik va ketma-ketligini ta'minlay olish, tabiiy resurslar va chiziqli turdagi kadastrlarni yuritish usullarini o'rgatadi.
8	Bino va inshootlar davlat kadastr	Bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish ishlarini o'rgatadi.
9	Davlat o'rmon kadastr	O'rmon kadastr ob'yektlari, ularning jug'rofiy xolati, huquqiy maqomi, miqdor va sifat tavsiflari hamda iqtisodiy bahosi to'g'risidagi bilimlarni o'rgatadi.
10	Kadastr ishlarini tashkil etish	Davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni tashkil etish va uni boshqarish, kadastr ishlarining rivojlantirish tarixi, davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda xorijiy mamlakatlarning tajribalari, O'zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritishda xorijiy mamlakatlarni tajribalari, O'zbekiston Respublikasida davlat kadastrlarini yaratish va yuritishni tashkil etishga oid masalalarni o'rgatadi.

11	Yer monitoringi	25. fondining holatini uzluksiz kuzatish tizimini, yerlarda ro'y bergan salbiy jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish, ularni ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy baholash usulini, salbiy jarayonlarni prognozlash, ularning oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni o'rgatadi.
12	Navbatchi kadastr xaritalarini yuritish	Barcha yer uchastkalari chegaralarini yetarli darajada aniq ko'rsatish imkonini beradigan masshtabda, elektron va qog'oz shaklida tayyorlash, keyinchalik xaritaga yer uchastkalarining egalari, foydalanuvchilari, ijarachilari va mulkdorlari tarkibida, shuningdek chegaralarda bo'lgan o'zgarishlar muntazam ravishda kiritib borish ishlarini o'rgatadi.
13	Kadastrda GAT	Kadastrda bajariladigan ishlarning qonun va qoidalarini mukammal bilishlari, unda qo'llaniladigan asbob-uskunalarni, shartli belgilarni, komp'yuter texnologiyalarida maxsus (Auto Cad, Arc GIS kabi) dasturlar bilan ishlashni o'rgatadi.
14	Kadastr ob'yektlarini ro'yhatga olish	Yerga mustahkam bog'langan (bog'liq) soni va qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan, yer uchastkalarga va boshqa ko'chmas mulklarga bo'lgan mulkchilikni umumiy xatga olish (ro'yhatga olish) ishlarini o'rgatadi
15	Kadastr ishlarida kompyuter grafikasi	Davlat kadastrlarini yuritishda plan kartografik mahsulotlar bilan ishlash hamda ularni yaratishni dasturiy ta'minot asosida bajarish usullarini o'rgatadi.
